"Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil” iqtisodiyot yili"da amalga oshiriladigan ishlar muhokama qilindi

// 14.02.2025
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/atrof-muhitni-muhofaza-qilish-va-yashil-iqtisodiyot-yili-da-

Bugun “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi Odil Temirov boshchiligida “Vema Carbon” kompaniyasi mutaxassislari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Unda "Atrof-muhitni muxofaza qilish va “yashil” iqtisodiyot yili"da “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan amalga oshiriladigan ishlar va rejalar muhokama qilindi.

Xususan, tarmoq korxonalarida hosil bo‘layotgan issiqxona gazlarini hisoblash, ularni kamaytirishda yangi texnologiyalarni joriy etish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar, “yashil” sertifikatlar olish va boshqa bir qancha amaliy ishlar yuzasidan suhbat bo‘lib o‘tdi.

Bugungi kungi uchrashuv natijalariga ko‘ra, Jamiyatning kelgusidagi strategiyasi aniqlanib, ustuvor vazifalar belgilab olindi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati